



O'ZBEKISTON NOMING TARIXGA KIRIB KELISHI

Gavxaroy Xudayarova

Andijon tuman 3-son kasb xunar maktabi Tarix fani o'qituvchisi

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 15- December 2023 yil

Ma'qullandi: 18- December 2023 yil

Nashr qilindi: 23-December 2023 yil

KEY WORDS

O'zbek, turk, O'zbekxon, mo'g'ullar.

ABSTRACT

Ushbu maqolada O'zbekiston, o'zbek nomlarining kelib chiqish tarixi, etnik qarashlar muhokama etiladi.

O'zbek xalqining kelib chiqishi va shakllanish tarixi tarixnavisligimizdagi eng dolzarb muammolardan biridir. Urug' (eski O'zbek.) — bir ajdoddan tarqalib (bir ona yoki otadan), umumiy bir nom bilan ataluvchi qon - qarindoshlik jamoasi. Qadimdan qon - qarindoshlik rishtalari bilan bog'langan, bir ildizga borib takaladigan, turmush tarzi, yashash sharoiti bir xil bir necha oilalar birikuvidan urug'lar hosil bo'lgan. Qarindoshlik hisobi ona (ona urug'i) yoki ota (ota urug'i.) buyicha olib borilgan. U yuqori va quyi paleolit davrlari oraligida paydo bo'lgan. Urug' jamoasining o'z yetakchisi - oqsaqoli bo'lgan. Urug' jamoasi hamma narsada, har bir masala-yu sa'y - harakatlarda oqsaqolning izmida bo'lgan. Urug'lar qabilalarga birlashgan. Jamiyatda tabaqalanishning paydo bo'lishi bilan bo'linib ketgan. Urug' — qabilalarga bo'linish qoldiqlari ko'p xalqlarda saqlanib kolgan. O'rta Osiyo xalqlari ko'pgina qabila va urug'larga bo'lingan. Masalan, O'zbeklar 92 dan ortiq, turkmanlar 100 dan ortiq, qozoqlar 300 dan ortiq qabilalar va urug'larga, ular esa yana bir necha urug'chalarga bo'lingan. Urug'lar Ko'pincha yashagan geografik joylari va ishlab chiqarish turlarining nomlanishi bilan atalgan. Turkiy xalqlar tarkibiga barlos, qiyot, qushchi, qo'ng'iro't, uyshun, nayman, chimboy, qarluq, kenagas, durmon, mang'it, nukuz, uyg'ur, xitoy, toymas, kipchok, tuman, ming va boshqa urug'lar kirgan. Qabila (arab.) — urug', urug' - aymok — bir ota - onadan tarqalgan bir nechta urug' uyushmasi; qabila urug'ga nisbatan yirik bo'lib, bir nechta urug'larning birlashuvidan hosil bo'ladi. Masalan, O'zbeklardagi ming, nayman, qo'ng'iro't qabilalari va hokazo. Bu birlik ibtidoiy jamoaga xosdir. Dastlabki qabilalar o'zaro dual ekzog'amiya, ya'ni bir - biriga kiz olib - kiz berish asosida qarindoshlik iplari bilan bog'langan bir nechta juft kudalashgan urug'dan tashqil topadi. Qabilaning o'ziga xos tili (lax,jasi), hududi, qabila nomining (etnonimining) bo'lishi va o'ziga xos qabila an'analarini, uning a'zolari tomonidan bilishi bilan boshqa qabilalardan ajralib turadi. Qabila hayotiga doir ishlarga boshchilik qiladigan qabila oqsaqoli saylangan, muhim masalalar buyicha qabila yiginlari o'tkazilgan. Qabilalar o'rtasida etnik, xo'jalik, moddiy va madaniy aloqalar rivojlanishi natijasida ular qo'shilishib, birlashib ketadilar. Natijada ularning yetakchi, nufu'zli guruhi

nomi bilan yangi etnik birlik - elat yoxud xalq shakllanadi.

Tarixga Fevral va Ulug' Oktyabr Sotsialistik Revolyutsiyasi nomi bilan kirgan Rossiya Imperiyasi va 1917 yilning 1 sentyabrida uning o'rnida e'lon qilingan Rossya Respublikasi hamda uni to'ntarib, o'sha yilning 7 noyabridayoq bolsheviklarni hokimiyat tepasiga olib kelib, 1922 yili Sovet Ittifoqi tuzilishiga sabab bo'lgan, jarayonlar moboynda tuzilib, 1917 yil 27 noyabridan 1918 22 fevraligacha mavjud bo'lgan Turkiston Muxtoriyati va Rossiya Federativ Sotsialistik Respublikasi tarkibida bo'lib, 1918 yil 30 apreldan 1924 yilning 27 oktyabriga qadar mavjud bo'lgan Turkiston ASSR deb atalgan siyosiy tuzilmalarning Sovet Ittifoqi davrida bo'lib o'tgan milliy o'zligini anglash va milliy chegaralash davrida yo'q bo'lib ketishining sababi ham o'sha davrda, ular tuzilgan hududlarning erli aholisi o'zlarini sira ham TURK MILLATIGA mansub, deb bilmaganligidadir, desak ham juda to'g'ri boladi. Chunki aynan shuning uchun ham TURKISTON degan davlat tuzish tarafdorlarini o'sha inqilobiy davrlarda: TURK MILLATINING MILLIY OZODLIGI UCHUN KURASHGAN QAHRAMONLAR, deb emas, balki hech ikkilanmay BOSMACHILAR, deb atashgan bo'lsa, ularning mafkurasi tarixiy manbalarda panislamizm va PANTURKIZM degan, biz uchun hozir ham zararli bo'lgan siyosiy oqimlarga qarashli bo'lgan, deyiladi.

Lekin o'sha XX asr boshlaridagi kommunistlarga qo'shilgan jadidchilar va Yosh buhoroliklar harakatidan chqqan Abdurauf Fitratga o'xshagan modernist-ziyolilarimizning qilgan eng kata xizmatlaridan biri — bu ular tarixni o'rganib, XIV-XV asrlar O'ZBEKISTONlari va O'ZBEK MILLATI o'sha davrlardan beri mavjud bo'lgani holda butun O'rta Osiyo xalqi ham shu millatga mansub ekanligini bilganliklari. Va suning uchun ham, bizning respublikamiz nomi o'sha rus tili davlat tili bo'lgan suronli davrlarda, Sovet Ittifoqi tarkibiga ittifoqdosh davlat sifatida kirayotganida, Bolsheviklar Kompartiyasi Markaziy Qo'mitasining qaroriga asosan Yan Rudzutakka "Uzbekskaya" SSR, ya'niy o'zbek tiliga tarjima qilganda: "O'zbeklarning" Sovet Sotsialistik Respublikasi, deb atash topshirilgan bo'lsada, lekin uni o'zbek tilida O'zbekiston SSR, deb atab. Bu nom keyinchalik respublikamizning 1927 va 1978 yillardagi Konstitutsiyalarida va amaliy hayotida aks etib, 1991 yili, u o'zining davlat mustaqilligiga erishgach, uni O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI degan nom bilan teng huquqqa ega bo'lgan O'ZBEKISTON atamasi (yoki topo-nomi) bilan qayta nomlash imkoniyatini bergan. Bu esa uni, ota-bobolarimiz o'zlarini O'zbekxon tuzgan XIV asr O'zbekistonida o'zbeklar nomi bilan uning zodogonlari va bu davlat qulagach, uni takroran o'sha nom bilan atagan va ularning o'zlari kelib chiqqan 24 turkiy urug'larni 1428 yili birlashtirish orqali o'zbek millatiga aylantirgan XV asr milliy O'zbekistonining va boshqa barcha o'zbek davlatlarining VORISI bo'lgan mustaqil davlat sifatida 1991 yili qayta tug'ilib, jahon hamjamiyatining suyosiy va iqtisodiy maydonida yangittan paydo bo'lishiga, olib keldi.

XULOSA VA MUNOZARA

Shunday qilib, Vatanimiz, asoschisi buyuk O'zbekxon bo'lib, uning sharafiga O'ZBEKISTON deb atalgan XIV asrdagi birinchi o'zbek davlati sharafiga, shunday nom bilan ataladi

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 5-jild. -T.: UME, 2003. - B.501
2. O'zbekistan milliy ensiklopediyasi. 8 - jild. - T.: UME, 2004. - B. 178- 179.
3. O'zbekistan milliy ensiklopediyasi. 9 - jild. - T.: UME, 2005. -B. 127; 366; 429; 490.
4. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. -T.: Universitet, 2007. -B.240)